

***ANIMATSION FILMLAR SUBTITRLI TARJIMALARINING LINGVOMADANIY  
XUSUSIYATLARI (INGLIZ TILIDAN O`ZBEK TILIGA TARJIMALAR MISOLIDA)***

***Ro'zimurodova Zarina Dusmurod qizi***

Namangan viloyati, Namangan davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi, Pop tuman 1-son kasb- hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchisi

***Loyiha dolzarbligi:*** Hozirgi vaqtda butun dunyoda bo'lgani kabi jahon tillarini, jumladan, ingliz tilini o'rganish har doimgidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli zamonaviy ta'lim metodikasi namoyondalari til o'rganishdagi turli metod va usullarni ishlab chiqishmoqda. Aynan shu yondashuvlardan eng samaralisi bu subtitrlar orqali til o'rganish bo'lib, ushbu loyiha natijasi sifatida inglizcha multfilmlarga o'zbek tilidagi subtitr yozib beruvchi sayt yaratildi. Ushbu sayt orqali o'uvchilar bir vaqtning o'zida ikki tilni solishtirib o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'z navbatida, o'rganuvchi turli tizimli til oilasiga mansub bo'lgan ushbu ikki tilda uchraydigan lingvomadaniy birliklarni qiyosan o'rganadi.

***Loyiha maqsadi:*** turli tizimli ikki tilni bir vaqtda lingvistik va madaniy jihatdan qisqa vaqtda o'rgatish.

***Loyiha ilmiy yangiligi:*** avtomatik subtitr va uning tarjimasini bexato yozib beradigan sayt yaratish.

***Erishilgan natijalar:*** Loyiha doirasida "Toy story" multfilmiga o'zbek tilidagi subtitr yaratilib, telekanallard efirga uzatildi.

***Kutilayotgan natijalar:*** loyiha doirasida ingliz tilidan o'zbek tiliga ba o'zbekchadan inglizchaga tarjima mexamizmi yaxshilanadi, avtomatik tarzda bexato tarjima subtitr yozib beradigan sayt yaratiladi.

XX asr o'rtalarida ilmiy fan sifatida shakllangan tarjimashunoslikning doirasi yangi tarjima ob'yektlarining paydo bo'lishi bilan muttasil kengayib bormoqda. Animatsion filmlarni o'z ichiga olgan multisemiotik video-verbal matnlarni mahalliyashtirish va moslashtirish ham nazariyotchilar, ham tarjima amaliyotchilarining doimo diqqat markazidadir.

Qo'shimcha stilistik yoki grammatik ma'lumotlarning mavjudligi bilan tavsiflangan lug'atni tarjima qilish muammosi murakkab mavzudir, chunki tarjima semantik

nomuvofiqlikning an'anaviy qiyinchiliklariga qo'shimcha ravishda, milliy o'ziga xos voqelik va subtekst mavjudligini talab qiladi. Polikodli video-verbal matnning madaniyatlararo moslashuviga qiziqish pragmatik zarurat va muallifning niyati, maqsadli auditoriyasi, ijtimoiy, madaniy va boshqa an'analar nuqtai nazaridan asl va tarjima tillarida ma'lumotlarning uzatilishining adekvatligiga qaratilgan lingvomadaniy omillarni tahlil qilish talabidan kelib chiqafi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ko'rib chiqilayotgan asl video-verbal matnlar va tarjimalarda ko'plab milliy va madaniy farqlarni, ham og'zaki, ham ikonik, ham eshitishni o'z ichiga olgan ma'lumotlar mavjud bo'lib, mahalliyashtirish jarayonida tarjima paytida alohida o'rganishni talab qiladi.

Subtoon.uz bu qanday platforma? U sizga

1. Professional tarjimadagi multfilmni subtitrini ;
2. Videodagi subtitrni o'zgartira olish imkoniyatini ;
3. Ingliz tilidan o'zbek tiliga va o'zbek tilidan ingliz tiliga subtitr yozish xizmatini taqdim etadi .

Subtoon.uz qanday muammolarga yechim bo'ladi:

1. Katta hajmdagi videolarga tez ,oson,to'g'ri subtitr yaratish funksiyasi;
2. To'g'ri tarjima;
3. Ingliz tilini tez va interaktiv yo'lda o'rganish;

Tarjima leksik-semantik, grammatik, stilistik va boshqa qarama-qarshiliklarga asoslangan manba va qabul qiluvchi tilning ikki lingvistik va madaniy tizimini aniqlashga asoslangan ko'p qirrali lingvistik jarayondir. Audiovizual badiiy film matnlarini tarjima qiluvchilar tomonidan asl nusxa va uning mahalliyashtirilgan variantini nisbatan teng idrok etilishi tarjimaning adekvatlikka erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan ham, tarjimashunoslik animatsion filmlar tarjimasi yo'nalishi har bir olimdan alohida o'rganish talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tilning o'ziga xos madaniy, milliy va lisoniy belgilari mavjuddir. Ushbularni tarjima jarayonida maromiga yetkazib o'g'irish tarjimonning mahoratiga bevosita bog'liq.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Fairclough N. Critical Discourse Analysis. London. 1995. 220 p.
2. Fiske J., Hardley J. Reading Television. London: Routledge. 1978. 200 p.
3. Gonzalo Fr. Rethinking agency and immersion: video games as a means of consciousness-raising. 2001.
4. Halliday M.A.K. Lexicology and corpus linguistics. London-New-York. Continuum. 2004. 153 p.
5. Hoerrner k. Gender Roles in Disney Films: Analyzing Behavior from Snow White to Simba // Women's Studies in Communication. 1996. Vol.19. is.2. P.213-228.
6. Hosseyni S. S. The role of nonverbal communication skills in guiding tourists. // Global Advanced Research Journal of Management and Business Studies, 7(8), 253-258. 2012
7. Jolly D. A Handbook for Translator Trainers: A Guide to Reflective Practice. Northampton, Mass.: St. Jerome. 2006, p. 4-5
8. King B., Borland J. Dungeons and Dreamers: The Rise of Computer Game Culture from Geek to Chic. New York: McGrawHill. 2003